

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi



Tehronidagi "Saadobod" majmuasining "Jumhuri" saroyida Eron Islom Respublikasiga rasmiy tashrif bilan kelgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo'lib o'tdi.


Davlatimiz rahbarini Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiy kutib oldi.

Saroy oldidagi maydonda oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. O'zbekiston va Eronning davlat bayroqlari ko'tarildi.

Harbiy orkestr ikki mamlakat madhiyalarini ijro etdi.

Prezidentlar faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

Birgalikda suratga tushish marosimidan so'ng yetakchilarning tor doiradagi uchrashuvi boshlandi.





Manba